

## Qorboboning tashrifi va tuhfalari

13 - dekabr kuni 3-talabalar turar joyida yangi yil munosabati bilan tashkil etilgan bayramda talabalar faol ishtrok etishdi. Shu bilan birgalikda tadbirda talabalar turar joyi direktori I.Buxorov so'zga chiqib talabalarni yaqinlashib kelayotgan yangi 2020-yil bilan tabriklab o'qish va ishlariga omadlar tilab qoldi. Bayram tadbiri yakunida faol talabalar "Eng yaxshi xona" nominatsiyasiga ega bolishdi.

QXM fakulteti talabalari Marupov Elbek, Baratov Ma'rufjon, Ro'ziyev Dilshod, SXTE va B fakulteti Sarsenov Nurbolat, Choriyev Xurshid, Musayev Siddiq, Xidirov Xurshid faol talabalar tashakkurnomalar bilan taqdirlanishdi.

Faol talabalarning tashabbusi bilan Qorbobo tashrifi tashkil qilindi. Qorbobo savollariga javob bergan talabalarga yangi yil sovg'alari berib xonalarni aylanib chiqdi.



Institut matbuot xizmati R. Jumaniyozov